

13.00.00 Педагогика фанлари

**NODAVLAT OTM TALABALARIDA MUSTAQIL TA'LIMNI TIZIMLI
SHAKLLANTIRISHNING USULLARI**

Botirov Azizbek Mirzakarimovich

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti Samarqand filiali o'qituvchisi

botirov3@gmail.com

Annotatsiya: O'z-o'zini nazorat qilish tizimining yaxlitligi talaba va o'qituvchining kasbiy tayyorgarlik jarayonida loyiha-maqсадli, tashkiliy va boshqaruv, bajaruvchi, kommunikativ, gnostik, rag'batlantiruvchi, tartibga solish va nazorat qilish va baholash faoliyatining o'ziga xos yo'nalishliligi bilan belgilanadi. Ushbu maqolada nodavlat OTM talabalarida o'zini o'zi boshqarish tizimining maqsadli funksiyalari borasida fikr yuritilib, ularning kasbiy ko'nikmalarini shakllantirish jarayoni tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: markazlashtirish, moslashish, aloqadorlik, rivojlanishning uzluksizligi, alternativlik.

**МЕТОДЫ СИСТЕМАТИЧЕСКОГО ФОРМИРОВАНИЯ
САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ У СТУДЕНТОВ
НЕГОСУДАРСТВЕННЫХ ВУЗОВ**

Ботиров Азизбек Мирзакаримович

**преподаватель Самаркандского филиала Ташкентского международного
университета Кимё**

botirov3@gmail.com

Аннотация: Целостность системы самоконтроля определяется однонаправленностью проектно-целевой, организационно-управленческой, исполнительной, коммуникативной, гностической, стимулирующей, регулирующей и контрольно-оценочной деятельности учащегося и преподавателя в процессе профессиональной подготовки. В данной статье рассматриваются целевые функции системы самоуправления у студентов негосударственных вузов.

Ключевые слова: централизация, адаптация, взаимосвязанность, непрерывность развития, альтернативность.

**METHODS OF SYSTEMATICAL FORMATION OF INDEPENDENT
EDUCATION IN STUDENTS OF NON-STATE UNIVERSITIES**

Botirov Azizbek Mirzakarimovich

**Lecturer at the Samarkand branch of Tashkent International Kimyo
University**

botirov3@gmail.com

Annotation: The integrity of the self-control system is determined by the unidirectional activity of project-targeted, organizational and managerial, acting, communicative, Gnostic, stimulating, regulatory and control and assessment in the professional training of the student and teacher. This article reflects on the targeted functions of the self-government system in non-state OSM students.

Keywords: centralization, adaptation, engagement, continuity of development, alternativity.

Kirish

Keyingi yillarda ta'lim sohasidagi islohatlarning mohiyati, uning barqarorligini ta'minlash yuzasidan qator islohatlar amalgam oshirilmoqda. Bu tushunchalarning zahirida, nafaqat pedagogik kadrlarning faoliyatini isloh qilish, shu bilan uzviy birlikda, talabalarni o'z faoliyatiga, kasbiy mahoratiga, uning mutaxassislikdan kelib chiqqan holda mustaqil qarorlar qabul qilish jarayonlariga ham jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Shu jihatdan, pedagogika ta'lim yo'nalishi talabalarining mustaqil topshiriqlarni bajarish jarayoni uchun ishlab chiqilgan tizimli yondashuvning mohiyati va tizimli boshqaruv sxemasi tavsifi asosida o'z-o'zini boshqarish sxemasi ishlab chiqildi. Har bir talabaning mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarish jarayoni, uning qarashlarida, tushunchalarida mujassamlashgan bo'lishini talab etadi.

Materiallar va metodlar

Tizim – ma'lum vazifa, topshiriqni bajarish jarayonida ma'lum bir qoida, vazifalarning bajarish, hal qilish, muammoning yechimini topish ketma-ketligi bo'lib, pedagogika yo'nalishi talabalarining mustaqil topshiriqlarni bajarish jarayoni quyi darajali jarayonlar tizimiga kiradi. Barcha quyi tizimlar faoliyatni boshqarish nuqtai nazaridan bir-biriga o'zaro bog'liq bo'lib, talabaning faoliyati, uning mustaqil tushunchalarni bayon etish, hokum va xulosa chiqarish jarayoni bilan uzviy bog'liqlikda amalgam oshiriladi. Ular yaxlit tizimlarning barcha xususiyatlariga ega bo'lib, noodatiylik, yaratuvchanlik, bog'liklik, yaxlitlik, himoyalanganlik, markazlashtirish, moslashish, aloqadorlik, rivojlanishning uzluksizligi, alternativlik kabi qarashlar bilan uzviy birlikda teranroq namoyon bo'lishini unitmaslik lozim.

Talabaning o'zini o'zi boshqarish jarayoni tizimining paydo bo'lish xususiyati uning quyi tizimlarining maqsadli funksiyalari har doim ham yuqori tizimning maqsadli funksiyasi bilan mos kelmasligini anglatadi. Bu qoidalar talaba o'zini o'zi boshqarish jarayonida hal qilishga majbur bo'lgan muhim maqsad va

vazifalar, shuningdek, faoliyatni rag'batlantiruvchi motivlarning talablari bilan bog'liqligini ham unitmaslik lozim. Talabalarning o'z-o'zini nazorat qilishning shakllanishi o'qituvchi tomonidan yuqori tizimning asosiy maqsadlarini aniq belgilash va o'z-o'zini nazorat qilishning quyi tizimlarining maqsadli funksiyalariga bo'ysunishni talab qiladi.

O'z-o'zini nazorat qilish tizimining yaxlitligi talaba va o'qituvchining kasbiy tayyorgarlik jarayonida loyiha-maqsadli, tashkiliy-boshqaruv, bajaruvchi, kommunikativ, gnostik, rag'batlantiruvchi, tartibga solish, nazorat qilish, baholash faoliyatining bir yo'nalishliligi bilan belgilanadi. Yakuniy natija talabaning o'zini o'zi nazorat qilishini, uni boshqarish shakllari, usullari va vositalarini to'g'ri tanlash bilan o'lchanadi. Har qanday muhim funksiyalarni, shuningdek, ularning quyi tizimlari unsurlarini e'tiborsiz qoldirish yoki sifatsiz bajarilishi muqarrar ravishda yirik tizimning pasayishiga, mavjud tayyorgarlikning sifat va miqdoriy ko'rsatkichlarining kamayishiga olib keladi. Talabaning mustaqil qarashlarini, uning belgilangan tushunchalar yig'indisini yuzaga chiqarish imkoniyatini kengaytiradi.

“Talaba mustaqil ishining asosiy maqsadi – o'qituvchining rahbarligidagi va nazorati ostida talab muayyan o'quv ishlarini mustaqil ravishda bajarish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish hamda ularni avitoriy mashg'ulotlarida berilgan nazariy va amaliy bilimlardan amalda foydalanishga o'rgatishdir” [1, 22-bet]. Ta'kidlanganidek, har bir belgilangan mavzuga talab mustaqil yondoshishi, qiyinchilik va muammolalarni hal qilolmaslik yuzaga kelganda, fan o'qituvchisidan, albatta, yo'nalish olishi zarur. Bu esa, uning mustaqil qarashlarini va hukmlarini haqqoniyligini ta'minlashga kengroq imkon beradi.

O'zini o'zi boshqarish tizimining yaxlitligi uning barcha tarkibiy elementlari: maqsadlar, vazifalar, mazmun, vositalar, usullar, tashkil etish shakllari, tajriba yoki oldingi faoliyat natijalari va funksiyalarning mavjudligi kutilayotgan natijaniing samaradorligini belgilaydi [2,46-bet].

Talabalar mustaqil topshiriqlarni bajarish davomida fan o'qituvchisining ko'rsatmalarioga ehtiyoj sezishi, tabiiy hol. Ana shunda talabning faoliyati o'qituvchi faoliyati bilan uzviy bog'liqlik asosida amalga oshiriladi, bu esa xulosalarning to'g'riligini, asosli yuzaga chiqish imkonini kengaytiradi. Barcha harakatlar o'z-o'zini nazorat qilishda amalga oshiriladi va faqatgina zaruriy hollardagina, fan o'qituvchisidan kerakli, zaruriy maslahatlarni olib boradi.

Talabaning o'z-o'zini nazorat qilishning yaxlitligi – bu tizimning barcha tarkibiy qismlari va uning faoliyat yo'nalishlarining birligi hisoblanadi. Bu birlikning buzilishi muqarrar ravishda o'z-o'zini nazorat qilishning pasayishiga va natijada kasbiy tayyorgarlik samaradorligining to'liq yuzaga chiqmasligiga sabab

bo'lishi mumkin. Ana shuning uchun, o'qituvchi tomonidan qo'yilgan har bir vazifa konkret shaklda, kengaytirilgan reja asosida, talabning o'z ustida mustaqil ishlash imkoniyatini kengaytirishga asos bo'ladigan muammoli qarashlarni, uning echimini to'g'ri anglash imkonini beruvchi mavzular asosida shakllantirilishi kerakligini uynitmaslik kerak [3, 18-bet].

Talabning o'zini o'zi boshqaruv tizimidagi eng asosiy qarashlardan biri ham, belgilangan mustaqil topshiriqlarni asosli va mukammal darajada bajarilishini ta'minlashga qaratilgan xatti-harakati bilan o'lchanadi. Shuning uchun talaba zaruriy, fanning asosiy xususiyatlarini namoyon etuvchi xarakterli darajadagi topshiriqlalar bilan ta'minlanishini ham jiddiy e'tiborga olish zarur. Himoyalani xususiyati talabning o'zini o'zi nazorat qilish tizimining nisbiy xavfsizligini, alohidaligini tavsiflaydi. Bu o'z-o'zini boshqarishning nisbiy funksiyalari quyi tizimlariga (o'zini o'zi rejalashtirish, o'zini o'zi tashkil etish, o'zini o'zi boshqarish) va kasbiy tayyorgarlik jarayoni funksiyalarining quyi tizimlariga taalluqli ekanligini ham anglatadi.

Muhokama va natijalar

Talabning ko'nikma va mustaqil ishlashga yo'naltirish ham o'qituvchidan katta mahoratni, ijodkorlikni talab etadi: "Iqtidorli yoshlarni aniqlash, ularda ta'limning eng yuqori darajasida, izchil ravishda fundamental va maxsus bilim olishlari uchun zarur sharoit yaratish" [4, 56-bet], - kerakligini ham unitmaslik lozim. E'tibor qaratilsa, iqtidorli talabning qarashlari, mustaqil tushunchalarining zahirida o'zini boshqarish, hukm va xulosalar chiqarishga imkon izlash etakchilik qilishini o'qituvchi anglashi, uni rag'batlantirishi va ko'nikmalarni yuksalish yullariga imkon berishi zarur.

Talabalarning o'z-o'zini nazorat qilish jarayonida asosiy rolni talaba bajaradi. O'z-o'zini nazorat qilishning bir qismi sifatida bu rol hal qiluvchi bo'lib, shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni amalga oshirish, uning shakllari, usullari va vositalarini tanlash asosida kechadi. Pedagogika sohasida ko'plab tadqiqotlar talabalarning individual xususiyatlariga e'tibor bermaslik o'qitish samaradorligini sezilarli darajada pasayishiga olib kelganligi isbotlangan. O'zini o'zi boshqarish tizimining ko'rib chiqilayotgan xususiyat va funksiyalari obyektivdir. Shuning uchun talabalarning mustaqil ishlarini loyihalash va tashkil etish o'qituvchi e'tiboridan chetda qolishi mumkin emas. Tizim sxemasining ushbu xossalari, elementlari va bog'lanishlarini tahlil qilish talabalarning o'z-o'zini nazorat qilish tamoyillarini hisobga olishni talab qiladi.

Prinsiplar - har qanday nazariya, ta'limot yoki fanning dastlabki, asosiy qoidalari hisoblanadi. O'z-o'zini nazorat qilish tamoyillari ushbu funktsiyani amalga oshirishning asosiy tayanch qoidasi bo'lib, ularga rioya qilish talabalarning

topshiriqlarni mustaqil bajarish jarayonida o'zini o'zi boshqarish samaradorligini va o'qituvchi tomonidan ushbu jarayonni boshqarishni ta'minlaydi.

Mustaqi tushunchalarga asoslangan o'z-o'zini nazorat qilishning muhim ahamiyati shundaki, har qanday inson faoliyati davomida egallashi lozim bo'lgan narsalarga teng bo'lsa, qanchalik samarali bo'lsa, natija uchun qanchalik muhim bo'lsa, samaradorlik muvaffaqiyatli ham, shunchalik ahamiyatli bo'ladi: "Inson qobiliyatining barcha turlari hamma odamlarga xosdir – har qaysi odam ma'lum darajada kishi faoliyatining barcha turlariga layoqatli bo'ladi, lekin shu bilan bir qatorda, ko'pchilik faoliyatining har necha sohasidan yoki hatto bir sohasida salohiyat ortiqroq bo'ladi" [5, 386-bet]. Qayd qilinganidek, o'qituvchi iqtidorli talabadan an shu salohiyatni aniqlash, shu sohaga qarab yo'naltirishi ham mumkin. Chunki, boshlang'ich ta'limda tahsil olayatgan talabada, pedagoglik iqtidori etakchilik qilishi mumkin yoki bolalar psixologiyasini yaxlishi anglash yo'lidan ketishi mumkin, aksincha, ularning nazariy qarashlarga munosabati o'zgacha bo'lishi mumkinligiga ham diqqat qilib borishi talab etiladi.

Talabaning mustaqil ta'lim topshiriqlarini, ularning bajarilishini ta'minlashga qaratilgan tushunchalarning barchasida, ular o'ligini namoyon qilishi talab etiladi. Chunki o'z-o'zini nazorat qilish tizimining faoliyat ko'rsatishi va rivojlanishining shartlilik tayyorgarlik ishlari tizimi va kasbiy ta'lim tizimining olib borilishi va rivojlanishi mantiqi, qonuniyatlari va tamoyillariga mos kelishi bilan belgilanadi. Talabalarining o'zini o'zi nazorat qilishning ilmiy prinsipi pedagogika va psixologiya sohasidagi ilmiy tadqiqotlar natijalarini hisobga olgan holda o'z-o'zini nazorat qilishni loyihalash va tashkil etishning obyektiv zarurligiga, shuningdek, obyektivlik, ishonchlilik va boshqalarning ilmiy tamoyillariga asoslanadi.

O'z-o'zini nazorat qilish usullarini ishlab chiqishda, xususan, mustaqil ish jarayonida pedagogika yo'nalishi talabalarining o'zini nazorat qilish, tushunchalar va ko'nikmalarini shakllantirishda barcha belgilangan tamoyillar o'zaro bog'liq hisoblanadi. O'z-o'zini tarbiyalashni integral jarayon sifatida ifodalab, uning tarkibiy qismlari shaxsning o'z-o'zini tarbiyalash, o'z-o'zini rivojlantirish bo'lib, uning asosiy vazifalarini hal qilishga imkon beradigan usullar tizimi ishlab chiqiladi. Ularga introspeksiya, o'z-o'zini ishontirish, o'z-o'zini tartibga solish, o'ziga-o'zi sodiqlik, o'z-o'zini rag'batlantirish, o'z-o'zini gipnoz qilish, o'zini o'zi boshqarish va o'zini o'zi nazorat qilish kabi xususiyatlar ajratib ko'rsatiladi. Usullarning bunday tarkibi o'qituvchining o'zini o'zi boshqarish usullarini deyarli to'liq aks ettiradi. Ular yaratgan har bir usulning tavsifi o'z-o'zini nazorat qilish usullarini tizimlashtirishga kirish vazifasini bajaradi.


Bu tasniflar tizim boshqaruvi konseptsiyasini nazorat qilish usullarining holatini tavsiflash uchun asos qilib olinadi. Tasniflash xususiyatlarini aniqlashda

“o‘z-o‘zini nazorat qilish” funksiyasining eng asosiy vazifasi o‘z-o‘zini tahlil qilish ekanligidan kelib chiqishi belgilanadi.

Talabaning o‘z-o‘zini nazorat qilish usullarini tasniflashda ikkita guruhni ajratish kerak: jarayon-tizim tufayli o‘zini o‘zi boshqarishning jarayon-funksional usullari guruhi va o‘z-o‘zini nazorat qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga ta'sir qiluvchi funksional bog‘lanish usullari guruhi. Ularning o‘z-o‘zini boshqarish jarayonining asosiy funksiyalari quyidagilarni o‘z ichiga olishi kerak: taqqoslash, qarama-qarshilik va umumlashtirish. O‘z-o‘zini hisobga olish usullariga talabaning o‘quv faoliyatining holati va natijalari to‘g‘risidagi ma'lumotlarni o‘lchash, hisobga olish ko‘rsatkichlari kiradi.

Talabalarning o‘z-o‘zini nazorat qilish jarayoniga ta'sir ko‘rsatadigan usullarning tarkibi quyidagilarni o‘z ichiga oladi: o‘z-o‘zini rejalashtirish usullari, o‘z-o‘zini tashkil etish va o‘z-o‘zini rag‘batlantirish usullari. Chunki o‘z-o‘zini rejalashtirish usullari guruhi o‘z-o‘zini prognozlash, o‘zini modellashtirish va o‘z-o‘zini dasturlash usullarini o‘z ichiga oladi. O‘z-o‘zini tashkil qilish guruhiga o‘z-o‘zini tartibga solish, o‘z-o‘zini muvofiqlashtirish, o‘z-o‘zini rag‘batlantirish, o‘z-o‘zini ishontirish usullari kiradi. O‘z-o‘zini nazorat qilishning ko‘p omilli xususiyatini va talabalarning o‘zini o‘zi nazorat qilish ko‘nikmalarini shakllantirishga ta'sir qilish usullari o‘qituvchi tomonidan tanlanishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Har bir talaba mustaqil ishga yondoshar ekan, uning zamiridagi qarashlarga, tushunchalar mohiyatini anglashga intilishi zarur. Talabaning o‘z-o‘zini ishontirish va o‘z harakatlarining to‘g‘riligini tekshirish munosabatni shakllantirish usuli sifatida ishlaydi. O‘z-o‘zini ishontirish usullariga fikrlash, tahlil qilish, avtomatik taklif, o‘z-o‘zini dasturlash, o‘zini simulyatsiya qilish, o‘z-o‘zini oldindan ko‘ra bilish kabilar kiradi (1-rasm).



1- rasm. O‘zini o‘zi boshqarish metodlari

Talabaning o‘z-o‘zini tartibga solish – bu talabalarning faoliyatini nazorat qilish va baholashga undash usuli hisoblanib, bu usul talabalarga kasbiy tayyorgarlik jarayonida qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun zarurdir. Ularning o‘z-o‘ziga majburiyat – talabalarning o‘zini o‘zi nazorat qilish vazifalarini o‘zlari aniqlashlarini ta'minlaydi: maqsadlar, vazifalar belgilanadi, o‘z harakatlarining rejasi ishlab chiqiladi. Ularni rag‘batlantirish – talabalarni o‘zini o‘zi nazorat qilishga undashga qaratilgan bo‘lib, bu faoliyatni ijobiy baholashga asoslanadi.

O‘zidagi ko‘nikmalarga, salohiyatga o‘zini ishontrish – talabalar tomonidan nazoratni tanqidiy baholash bilan bog‘liq va u faollashtirishga qaratilgan. O‘zini muvofiglashtirish – o‘qituvchilarning, potentsial ish beruvchilarning yoki kasbiy tayyorgarlik jarayonining boshqa subyektlarining tavsiyalari va baholashlarini hisobga olgan holda nazorat va baholash faoliyatini o‘zgartirishni ta'minlaydi.

Ulardagi o‘zini tartibga solish – talabalarning nazorat va baholash faoliyatini o‘z baholashlari asosida o‘zgartirishga qaratilgan. Voqelikni oldindan ko‘ra bilish – bu holatni tahlil qilish va o‘zini o‘zi boshqarishni yaxshilash yo‘llarini aniqlash usulida mustaqil hukmlar chiqarish yo‘lini tanlash lozimligini ham unitmaslik lozim. Modellashtirish – talabalar tomonidan nazorat va baholash faoliyati modellarini ishlab chiqishga qaratilgan usullar hioblanadi. O‘z-o‘zini dasturlash – talabaning nazorat qilish va baholash faoliyati algoritmini ishlab chiqishni ta'minlaydi.

Ushbu usullarni amalga oshirish talabalarda o‘quv materialini ular tomonidan o‘zlashtirish darajasini nazorat qilish, xatolar, noaniqliklarni mustaqil ravishda topishga yordam beradi. Aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish yo‘llarini

belgilash, qobiliyatlarni rivojlantirish, mustaqil xulosa chiqarish ko'nikmalari rivojlantiriladi. Shaxsning o'zini nazorat qilish usullarining yaxlit tizimi, tamoyillari va tasniflari, ularning tuzilmalari va tarkibiy o'zaro bog'liqliklari pedagogika yo'nalishi talabalari o'rtasida mustaqil ish jarayonida o'z-o'zini nazorat qilish ko'nikmalarini shakllantirish samaradorligini oshirishning asosiy shartlarini aniqlashga imkon beradi. Bu shartlar talabaning ijobiy motivatsiyasini shakllantirish zarurati (o'zini o'zi boshqarishning asosiy funksiyalari quyi tizimining bog'lovchi funksiyasi sifatida o'z-o'zini boshqarishni muvaffaqiyatli amalga oshirish)ni yuzaga chiqaradi. O'z-o'zini boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan muammolarni hal qilishda talabalarning ijobiy qobiliyatlarini rivojlantiradi. Mustaqil ish uchun o'quv materiallari bo'yicha va o'z-o'zini nazorat qilish ko'nikmalarini tuzatish usuli sifatida ish beruvchilarning ekspert baholashlaridan foydalanish zaruratini amalga oshiradi.

Xulosa

Talabalarning mustaqil ishlarini tizimli boshqarish sxemasining tarkibiy va funksional munosabatlarini nazariy tahlil qilish jarayonida olingan xulosalarimiz Toshkent Kimyo texnologiyalar universiteti Samarqand filiali talabalari o'rtasida o'tkazilgan so'rov natijalari bilan tasdiqlangan. Ularning o'z-o'zini nazorat qilish ko'nikmalarini shakllantirishga qanday shart-sharoitlar yordam berishi haqida so'ralganda: ularning 94 foizi ushbu faoliyatga qiziqish zarurligini, 89 foizi bu ko'nikmalarni shakllantirishga hissa qo'shadigan o'quv va kognitiv vazifalarni hal etish zarurligini ta'kidlagan. 90 foizi ularning qobiliyatlarini baholashda ish beruvchining fikriga bo'lgan ehtiyoji zarurligini ta'kidlashgan.

Darhaqiqat, talabaning ruhiyatida mavjud intilishlarni, qiziqishlarni jiddiy e'tiborga olish jarayonida, ularning har birida mustaqil ishlash fikrini kengaytirish, ularning qarashlariga, tushunchalaridagi nazariy muammolalarga munosabatidan kelib chiqib mustaqil topshiriqlarni berish, ulardagi qiziqishni kuchayishiga imkon beradi. Bu esa talabada turli qarashlar, tushunchalarni yaxlitlashtirish imkonini ham beradi. Shuning uchun, talabaning mustaqil ko'nikmalarini shakllantirishda, uning ijodkorligi, qobiliyati, qiziqishlari ham jiddiy inobatga olinishiga diqqat qilish zarur. Bularning barchasi, talabada o'zining tafakkur mahsuli bo'lgan qarashlarini kengaytirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nasirov A. Talaba mustaqil ishini tashkil etish, nazorat qilish va baholash tartibi to'g'risida. Ma'lumot uchun qarang: Nasirov A. Adabiyotshunoslik nazariyasi. Mustaqil ta'lim topshiriqlari. Kurs ishlari. – Samarqand, SamDU nashri, 2019. – 116 bet.

2. Леонтьев А. Н. Проблемы развития психики / А. Н. Леонтьев. - М. : Изд-во МГУ, 1991. - 584 с.
3. Mavlonova R., Rahmonqulova N., Matnazarova K., Shirinov M., Hafizov S. "Umumiy pedagogika". Darslik. Toshkent, "Innovasiyon rivojlanish nashriyoti-matbaa uyi", 2020, 528 b.
4. Qodirova va boshqalar. Maktabgacha pedagogika. Darslik. – Toshkent, Tafakkur nashriyoti, 2019. – 684 bet.
5. Ivanov P.I., Zufurova M.E. Umumiy psixologiya. Darslik. – Toshkent, O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2021. – 480 bet.
6. Рубинштейн С. Л. Самосознание личности и ее жизненный путь / С. Л. Рубинштейн // Психология личности. - М., 1992. - С. 18-24.
7. Шамова, Т. И. Активизация учения школьников / Т. И. Шамова. - М.: Педагогика, 1992. - 209 с.
8. Митина Л.М. Учитель как личность и профессионал (психологические проблемы). – М.: Дело, 1994. – 215 с.
9. Rahmanov B.U. Insonning ruhiy-ma'naviy o'z-o'zini tashkillashtirishini falsafiy asoslash. Fal. fan. bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. Samarqand.-2017. – B. – 142.
10. Тураев Б. О., Ризаев И. И. Особенности проявления искусственного интеллекта в бытии человека //Новые информационные технологии и системы (НИТиС-2022). – 2022. – С. 361-363.
11. Imomalievich R. I. Synergetics: The Path from General Systems Theory to Self-Organization //Global Scientific Review. – 2023. – Т. 22. – С. 317-324.
12. Qahramonovich H. N. Worthy descendants of the Samarkandians: enlighteners Jadids //World Bulletin of Social Sciences. – 2022. – Т. 13. – С. 37-40.
13. Usmonov F. Ethical differences between science and pseudoscience //European Journal of Interdisciplinary Research and Development. – 2023. – Т. 18. – С. 84-88.
14. Сафаров А. И., Ризаев И. И. Роль исторического сознания и исторической памяти в системе национального сознания //Культурное наследие и народное искусство: сохранение и актуализация в целях устойчивого развития общества. – 2022. – С. 297-303.
15. Yuldashevna Y. D. Science and Its Significance in the Process of Forming Spiritual and Moral Values //JournalNX. – 2021. – Т. 7. – №. 04. – С. 248-253.